

**ORGANIZATION OF HISTORY LESSONS ON THE BASIS OF TECHNOLOGICAL
APPROACH IN SCHOOLS OF GENERAL SECONDARY EDUCATION**

Navrozov Ikrom Nurillaevich

Senior Lecturer, Department of history, NDU

Annotation: This article cites information that the teacher of history should not organize educational and cognitive activities in a passive listening state during the teaching process, but design the organization in an active state to achieve educational goals, organize teacher-student cooperation in the process and turn students into subjects of the pedagogical process, acquire the methodological knowledge, skills and qualifications necessary for organizing.

Keywords: history teacher, passive listener, teacher-student cooperation, pedagogical process, methodological knowledge, skills, qualifications.

**UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA TEXNOLOGIK YONDOSHUV ASOSIDA
TARIX DARSLARNI TASHKIL ETISH**

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarix fani o'qituvchisi o'qitish jarayonida o'quv-bilish faoliyatini passiv tinglovchi holatda tashkil etmasdan, balki o'quv maqsadlariga erishish uchun faol holatda tashkil etishni loyihalashi va jarayonda o'qituvchi-o'quvchi hamkorligini tashkil etishi hamda o'quvchilarni pedagogik jarayonning sub'ektiga aylantirishi, ta'lim jarayonining o'qituvchi ishtirokini yo'nalishini tashkil etish uchun zarur bo'lgan metodik bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi lozimligi haqidagi ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Tarix fani o'qituvchisi, passiv tinglovchi, o'qituvchi-o'quvchi hamkorligi, pedagogik jarayon, metodik bilim, ko'nikma, malaka.

Respublikamizda o'qituvchi-o'quvchi munosabatlarini insonparvar-lashtirish va demokratlashtirish, ta'lim oluvchi shaxsini hurmat qilish, uning qiziqish va ehtiyojlarini hisobga olishga asoslangan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim modeli amaliyotga keng tatbiq etildi.

O'zbekiston tarixiga nazar tashlar ekanmiz, turli davrlar va mafkuralar ta'sirida ilk ilmiy-tarixiy, diniy-falsafiy, ta'limiy-axloqiy ta'limotlar yosh avlodni komillikka etaklovchi qudratli kuch, aql, idrok, yuksak tafakkur, ma'naviy-axloqiy shakllantirish ta'lim-tarbiyaning negizi bo'lganligini kuzatamiz. Albatta, bu ulug'vor vazifalarni bajarishda ajdodlarimiz ta'lim-tarbiyada maqbul metod va usullardan foydalanganlar.

Pedagogik texnologiyaning milliy asosi ta'lim-tarbiya tajribalarini turli tarixiy davrlarda amalga oshirishning shakl va usullari, mazmuni hamda turli pedagogik nazariyalar haqidagi ma'lumotlardan iborat bo'lib, ular zamonaviy pedagogik texnologiyalarning kelib chiqishi uchun zamin hisoblanadi.

Tarix o'qitish metodikasi tarix fanlarini o'qitishda ta'lim mazmuni, o'qitish shakllari, metodlari, vositalarini o'zaro bog'liq holda amaliyotga joriy etishni asosiy maqsad qilib qo'yadi.

Tarix fani o'qituvchisi o'z pedagogik faoliyatida tarix o'qitish metodikasi maqsadi, vazifasi, o'qitish prinsiplari, qonuniyatlarini chuqur anglagan holda, ta'lim-tarbiya jarayonini unga qo'yilgan talablar asosida tashkil etishi, o'quvchilarning yosh, psixologik va ergonomik

xususiyatlari hisobga olingan holda, ta'lim mazmuni, o'qitish shakli, metodi va vositalarining uzviyligini ta'minlashi lozim.

A.Yu.Kodjaspirovning fikricha, «O'qitish metodikasi pedagogik faoliyatni amalga oshirishning aniq usullari, uslublari va texnikasidir»[1,174-b.].

Metodika o'quv jarayonini qanday tarzda tashkil etish lozimligini nazarda tutsa, texnologiya qay yo'sinda o'quv jarayonini eng qulay, maqbul tarzda amalga oshirishga diqqat-e'tiborni qaratadi.

Texnologik jarayon ikki – loyihalash va rejalashtirish bosqichlaridan tashkil topadi. Ta'lim loyihasi ma'lumot mazmunini davlat standartlari talablari asosida tahlil etishdan boshlanadi.

Professor B.X. Xodjaev tomonidan ishlab chiqilgan o'quv jarayonini texnologiyalashtirish bosqichlarini quyidagicha tasavvur qilish mumkin.[2]

Texnologik yondoshuv asosida o'quv jarayonini tashkil etish:

1. Loyihalash

2. Rejalashtirish

1. Loyihalash:

o'quv mashg'ulotining maqsad va vazifalarini aniqlashtirish

kutiladigan natijalarni oydinlashtirish

shakl, metod va vositalarni tanlab olish

nazorat va baholash tartibini belgilash

2. Rejalashtirish:

mashg'ulot bosqichlari va vaqtni taqsimlash

o'qituvchining vazifasi

o'quvchining o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish

o'quv materiallari majmui

Loyihalash metodi asosida tarix darslarini o'tkazish tarix o'qituvchisining yuqori malaka, bilim va ijodkorligini namoyon qilishiga imkon yaratadi. Chunki har bir loyiha ijodkorlik bilan yondashib, zaruriy materiallarni tanlab, ajratib olishni, topshiriq va mashqlarning samarali tizimini ishlab chiqishni talab qiladi. SHu bilan birga loyihalarni o'quv jarayoniga kiritish, tashkiliy va psixologik jihatdan bir qator muammolarni echishni talab qiladi.

Ta'limda loyihalashtirish o'qituvchi tomonidan o'quvchining muammoni izlash, uni hal etish bo'yicha faoliyatini rejalashtirish va tashkil etishdan boshlab ommaviy baholash uchun uni hal etish usulini (intellektual yoki moddiy mahsulotni) taqdim etishgacha mustaqil harakat qilishini ta'minlovchi maxsus (laboratoriya sharoitlarida) tashkil etilgan maqsadli o'quv faoliyatidir [3].

Tarix fani o'qituvchisi tanlanadigan mavzuning mohiyat – mazmunini har tomonlama tahlil qilib, loyiha asosiy muammosini aniqlashtiradi. Loyiha ilmiy-nazariy va amaliy asoslanib, uning asosnomasi shakllantirilib, o'quv-metodik birlashma muhokamasiga taqdim etiladi. O'quv

loyihalari puxta ishlangan bo'lsa, u o'quvchilarda yangi bilim hosil qilishga samarali xizmat qiladi.

O'quvchilarning bilim darajasini chuqur o'rganmasdan turib, o'qitish jarayoniga maqsadli ta'sir qilish va o'quvchining bilimni chuqurlashtirib bo'lmaydi. Ko'pgina psixologlar va pedagoglarning fikriga ko'ra, 11-14 yoshli o'quvchilarda aniq-obrazli mushohada etakchi bo'ladi va ularda mavhum mushohada ham mavjud bo'ladi. SHu sababli o'quvchilarni xulosalarga olib kelish, tushunchalarni shakllantirish uchun yorqin, obrazli tasavvurlarga suyanish lozim.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi loyiha metodi asosida darsni tashkil etib, o'quvchini o'tmishga qaytarishi, uni o'sha davrni tasavvur qilishiga yordam berishi lozim. Buning uchun tanlangan loyihani bajarishda ko'hna davr voqea-hodisalari yorqin, o'quvchi tomonidan obrazli qabul qilish jarayoni boradi, loyihani bajarishda tarixiy kinofilmlar, tarixiy qissa, roman yoki tarixiy ommabop hujjatli filmlardan, rasm-tasvirlardan foydalanish mumkin. Bu obrazli tasvir ta'sirini kuchaytiradi. O'qituvchi dalillarni o'rganish jarayonida tushunchalar hosil qilish yoki bir necha tushunchalarni yanada umumlashtirishni shakllantirishga olib kelishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xodjaev B. X. Umumta'lim maktabi o'quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta'minot vositasida rivojlantirish: Pedagogika fanlari doktori ... diss. – T., 2016. – 176 b.
2. Xodjaev B. Umumta'lim modernizatsiyalashgan didaktik ta'minot vositasida umumta'lim maktablari o'quvchilarida tarixiy tafakkurni rivojlantirish. –T.: «Fan va texnologiya», 2015. – B.79-83
3. Leontev A.A. Deyatelnochnyy um (Deyatelnost. Znak. Lichnost). – M.: Smysl, 2001. – 392 s.